



Joriy yilning 13-14 aprel kunlari poytaxtimizning «O'zko'rgazmasavdo» markazida o'tkazilgan bank texnologiyalari, uskunalari va xizmatlari «BANKEXPO - 2016» milliy ko'rgamasida «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki faol ishtirok etdi. Milliy ko'rgazmada «Asaka» bank mahsulotlari va xizmatlari keng namoyish etildi. Ko'rgazmaga tashrif buyurganlarga, shu jumladan yoshlarga, ta'lim muassasalari talabalari va bitiruvchilariga bank tomonidan taqdim etilayotgan bank mahsulotlari va xizmatlari haqida hamda «Asaka» bank faoliyati to'g'risida batafsil va atroflicha ma'lumotlar berildi.

«Asaka» bank mamlakatimizning moliyaviy xizmatlar bozorida 20 yildan ortiq vaqt davomida o'zining yetakchilik mavqeyini saqlab kelmoqda. «Asaka» bank 1995 yilda Davlatimiz Rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan.

«Asaka» bank kapital va aktivlari hajmi jihatidan O'zbekistonda yetakchi banklardan biri sanaladi. Bank, mamlakat iqtisodiy hayotining barcha ishtirokchilari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga xizmat ko'rsatish vazifasini qo'ygan. Bank, har bir mijozning individual talabidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborini ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda.

Bank muntazam ravishda o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib bormoqda. Hozirgi kunda bankning hududiy tarmoq tizimi respublikamizning butun hududini qamrab olgan bo'lib, 26 filial, 93 mini-bank, 329 jamg'arma, maxsus va ko'chma kassadan iborat.

«Asaka» bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning soni — 33,5 ming nafardan ortdi. Ular qatorida mashinasozlik, aniq mashinasozlik va asbobsozlik, metallarga ishlov berish, konchilik, energetika, qurilish majmuasi, paxtani qayta ishlash sanoati, to'qimachilik sanoati, dori-darmon ishlab chiqarish, nashriyot, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish kabi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar vakillari mavjud. Xizmatlardan foydalanayotgan jismoniy shaxslarning soni 1 668,6 ming nafardan ortdi.

Bankning chakana xizmatlaridan muntazam ravishda foydalanuvchilar soni 1,5 million nafardan oshdi.

«Asaka» bank tashqi iqtisodiy hamkorlikning faol ishtirokchisi. Mamlakatimiz iqtisodining strategik sohalarini rivojlantirishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etishga ko'maklashib kelmoqda. 350 dan ziyod yetakchi xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatilgan.

Nufuzli xorijiy «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» nashriyotlari tomonidan «O'zbekistonning eng yaxshi banki» unvoniga bir necha bor sazovor bo'ldi.

«Asaka» bank o'zining xalqaro maydondagi maqomiga katta e'tibor qaratadi. Xususan, bank doimiy tarzda xalqaro reyting agentliklari tomonidan bir necha yillardan beri yuqori reyting baholariga sazovor bo'lmoqda. Jumladan, jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «Moody's» va «Fitch Ratings» tomonidan qatorasiga bir necha yillardan beri «Asaka» bank faoliyatiga yuqori reyting baholari berilmoqda, bank faoliyati «Barqaror» deb ta'kidlanmoqda. Joriy yilning 17 fevralida «Moody's» xalqaro reyting agentligi «Asaka» bank reytingini tasdiqladi va barcha reytinglar istiqboli «Barqaror» deb baholandi. Bu esa «Asaka» bankiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bankning barqarorligidan dalolat beradi.

«Asaka» bank jami aktivlari 2016 yil 1 aprel holatiga 8 053,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2691,5 mlrd.so'mga o'sdi.

Bank jami kapitalini 118,0 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 955,7 mlrd.so'mga etkazildi.

Bank kredit qo'yilmalari va lizing xizmatlari hajmi 3 895,2 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Kredit qo'yilmalarining 3 522,9 mlrd. so'm miqdoridagi qismi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etadi, shundan 3 090,2 mlrd so'm miqdoridagi qismi investitsion kreditlardir.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda ham «Asaka» bankning hissasi oshib bormoqda.

Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash va kredit mablag'lari hajmini ko'paytirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirib, 2015 yilda ushbu maqsadlarga 1 trln.168 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lsa, joriy yilning birinchi choragi davomida 332,2 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Shu jumladan, ayollar tadbirkorligini tashkil etish va rivojlantirishga 34,7 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 51,3 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun qariyb 3,0 mlrd.so'm, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 1,8 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Tadbirkorlarga 24,4 mlrd.so'm miqdorida mikrokreditlar berildi.

Bu esa respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa mehnat resurslari zich joylashgan hududlarda xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etish, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, respublikamiz aholisini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilashga, ayollar tadbirkorligi, kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga hamda yangi ish o'rinlari yaratishga imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, bank tomonidan qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jalik korxonalariga moliyaviy ko'mak berish orqali agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va samarali o'tkazish, respublikamizda uzumchilikni rivojlantirish maqsadlariga qariyb 30,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Bank tomonidan qishloq xo'jalik korxonalariga moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun kreditlar ajratilishi va ulardan samarali foydalanishi, ishlarning maqsadga muvofiq tashkil qilinishi natijasida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligiga erishilmoqda.

Joriy yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga 1 trln.520 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining yanada o'sishi va mustahkamlanishi omillaridan biri - bu iqtisodiy nochor va bankrot deb e'lon qilingan korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko'mak berish va shu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu sohada asosiy dasturulamal bo'lmoqda. «Asaka» bank tomonidan bu sohada muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga 61,7 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Natijada 3974 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 546,2 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 66,2 mln.AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi «Aholi va ho'jalik subyektlarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb etishni yanada rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi»gi va 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlariga muvofiq hamda aholining bank

tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 40 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin. Omonatlarga qo'yilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda omonatchilarning birinchi talablariga binoan naqd pulda ta'minlab berilmoqda.

Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2016 yil 1 aprel holatiga 632,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131,2 mlrd.so'mga o'sdi. Omonatchilar soni 220,2 ming nafarga o'sdi va 1 668,6 ming nafardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va O'zbekiston Respublikasi Banklar Uyushmasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 31 oktyabrdagi «Aholining omonatlarini jalb qilish bo'yicha Respublika tijorat banklari o'rtasida tanlov o'tkazish to'g'risida»gi Qaroriga asosan 2015 yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan.tanlovda «Asaka» bank g'olib deb topilib, «**Aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki**» nominatsiyasi bo'yicha 3-o'rinni egalladi.

«Asaka» bankning Surxondaryo viloyat filiali «**Shaharlarda aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi filiali**» nominatsiyasi bo'yicha g'olib chiqdi va 2-o'rinni egalladi.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan joriy etilgan «**Qadriyat**» omonati «**Milliy valyutadagi eng yaxshi muddatli depozit**» deb topildi.

Ko'rinib turibdiki, aholining «Asaka» bankiga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda va «Asaka» bank tizimida bu sohada olib borilayotgan ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2016 yil 1 aprel holatiga 1695,3 ming donadan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni 197,9 ming donaga o'sdi. 10355 ta terminal, 27 ta bankomat va 46 ta infokiosk o'rnatildi. 9178 ta korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2016 yil birinchi choragi davomida savdo aylanmalari miqdori 573,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Hozirgi paytda «Asaka» bank tomonidan mijozlarga «UzCard EMV» (on-layn) tizimida foydalanishga mo'ljallangan plastik kartochkalar taklif etilmoqda. Ushbu plastik kartochkalar yordamida:

- barcha kommunal xizmatlar, uyali aloqa operatorlari, kabel televideniyesi, internet va boshqa xizmatlar hamda tovarlar uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- bank tomonidan mijoz uchun ochilgan hisob raqamni boshqarish;

- jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalarini uyali aloqa telefoni yoki internet tarmog'i orqali bank ishtirokisiz amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, mijozlar uchun quyidagi qulayliklar yaratilgan:

- to'lovlarni telefondagi USSD-so'rovnomasi orqali xohlagan telefondan (telefon markasidan qat'iy nazar) amalga oshirish mumkin;
- mijoz tomonidan telefonga hech qanday qo'shimcha dasturiy ta'minot o'rnatish talab qilinmaydi;
- hisob raqam telefonga emas, balki mijozning SIM-kartasiga bog'langan, shuning uchun telefon ishlamay qolgan taqdirda SIM-kartani boshqa telefonga o'rnatib, to'lovni amalga oshirish mumkin;
- mijozning telefonida mablag' yetarli bo'lmagan holatlarda ham mijoz USSD-so'rov orqali to'lovlarni amalga oshirishi mumkin;
- mijoz bankga tashrif buyurmasdan balansni ko'rishi, pul mablag'lari bilan to'ldirishi, to'lovlarni amalga oshirishi hamda nazorat qilishi mumkin;
- plastik kartochkalari orqali to'lovlarni amalga oshirish bepul va hech qanday komissiya olinmaydi.
- jismoniy shaxslarning plastik kartochkalariga kirim qilinadigan pul mablag'lari uchun korxonalar va tashkilotlardan xizmat haqi undirilmaydi;
- plastik kartochkadagi pul mablag'lari qoldig'i uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida daromad hisoblanadi.

«Asaka» bankda xalqaro plastik kartochkalar (MasterCard) orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini kengaytirish bo'yicha ham ishlar faol davom ettirilmoqda. Hozirgi kunda bank tomonidan chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 144,8 ming donadan oshdi.

«Asaka» bank jamoasi joriy yilda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.